

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана	6
---	---

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	15
---	----

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari	20
---	----

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari	25
--	----

K.P.Islamova

Sadriddin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi	28
---	----

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasinging falsafiy tahlili	33
--	----

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini	37
--	----

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati	42
---	----

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi	47
---	----

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni	54
---	----

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili	59
--	----

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati	62
--	----

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis	70
--	----

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari	74
--	----

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili	78
--	----

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni	81
---	----

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati	85
--	----

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni	90
--	----

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari	93
---	----

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari	99
---	----

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili	103
---	-----

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish	
--	--



UO'K: 1(091). 811512.133

SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA JADIDCHILIK FAOLIYATINI JAMIYAT HAYOTIGA KIRIB KELISH SHART-SHAROITINING YORITILISHI**ОСВЕЩЕНИЕ УСЛОВИЙ ВХОЖДЕНИЯ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В ЖИЗНЬ ОБЩЕСТВА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ САДРИДДИНА АЙНИ****ILLUMINATION OF THE CONDITIONS FOR THE ENTRY OF THE JADID MOVEMENT INTO SOCIETY IN THE WORKS OF SADRIDDIN AINI****Islamova Komila Payzullayevna** 
Samarqand davlat chet tillar instituti tyutori**Annotasiya**

Ushbu maqolada Sadriddin Ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatining jamiyat hayotiga kirib kelishi bilan bog'liq ma'lumotlar tahlil qilingan. Jadidchilik harakati xalqimiz ma'naviy savodxonligini oshirish, boshqaruv tizimini xalq manfaatlariga moslashtirish va uni jahon standartlariga yaqinlashtirish g'oyalarini ilgari surgan. Sadriddin Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarida jadidchilik faoliyatini ma'rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik harakati sifatida keng yoritgan. "Qisqacha tarjimai holim" asarida jadid matbuoti haqida, "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar"da esa jadid maktablarining Buxoro ta'lim tizimidagi ahamiyati, ma'rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik qarashlarining yoyilishidagi o'zni hamda maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются сведения о вхождении джадидизма в жизнь общества в трудах Садриддина Айни. Джадидизм, который считается уникальным новым этапом в истории системы образования нашей страны, продвигал идеи повышения духовной грамотности народа, адаптации управления страной к интересам общества и создания системы, соответствующей мировым стандартам. В труде Садриддина Айни «Материалы к истории Бухарской революции» подробно освещена деятельность джадидов как просветительского и прогрессивного движения. В «Краткой автобиографии» автор пишет о джадидской печати, а в «Материалах к истории Бухарской революции» содержатся сведения о значении джадидских школ в системе образования Бухары, их роли в распространении просветительских и прогрессивных идей и развитии образования.

Abstract

This article analyzes the introduction of Jadidism into the life of society in the works of Sadriddin Ayni. Jadidism, which is considered a unique new stage in the history of our country's educational system, promoted the ideas of raising the spiritual literacy of the people, adapting the administration of the country to the interests of society, and establishing a system in line with international standards. In his work "Materials for the History of the Bukhara Revolution", Sadriddin Ayni extensively analyzed the activity of Jadidism as a movement of enlightenment and progress. In his "Short Autobiography" he discussed the Jadid press, while "Materials for the History of the Bukhara Revolution" also provides information about the role of Jadid schools in Bukhara's educational system, their contribution to the spread of enlightenment and progressive ideas, and their services in the development of education.

Kalit so'zlar: jadid maktablari, Progressiv harakat, islohotchilik harakatlari, "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") tashkiloti, "Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetalar.

Ключевые слова: джадидские школы, Прогрессивное движение, реформистские движения, организация «Тарбияй атфол» («Детское образование»), газеты «Бухарай шариф» и «Турон».

Key words: Jadid schools, Progressive movement, reformist movements, organization "Tarbiyai atfol" ("Children's upbringing"), "Bukharai sharif" and "Turon" newspapers.

KIRISH

XX asr boshlarida Buxoro amirligiga ham asta-sekin tarqala boshlagan jadidchilik harakati o'z atrofida xalq namoyondalarini yuzaga chiqara boshladi.

Sadriddin Ayniy o'z asarlari va xotira kitoblarida Buxoroda yuzaga kelgan jadid maktablari va ta'limi, bu maktab yulboshchilari haqida ma'lumotlarni jamlab yozgan. Sadriddin Ayniy Buxoroda yangi usul maktablari tashkil etishning yo'l boshchisi sifatida usha davrdagi mamlakat hayotidagi o'zgarishlarni o'z kuchi bilan kurgan guvoh hisoblanadi.

Sadriddin Ayniy jadidchilik faoliyatining xalq orasida yoyilishi va bu borada amalga

FALSAFA

oshirilgan ma'rifatparvarlarning sa'y-harakatlarini guvohi sifatida o'z xotiralari va asarlarida keltirib o'tadi. Sadridin Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarda jadid usulidagi maktablarning Buxoro ta'lim tizimidagi ahamiyati, ma'rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik qarashlarining yoyilishida, maorifni rivojlantirish borasidagi xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Sadridin Ayniy "Qisqacha tarjimai holim" kitobida jadid matbuoti haqida quyidagilarni yozgan: "1905-yil Rossiyada yuz bergan revolyutsiya Buxoroga katta ta'sir ko'rsatdi. Progressiv harakat, islohotchilik harakatlari kuchaya boshladi. Turk va tatarlarning hamma matbuoti Buxoroga ham tarqalib, amirlik aholisining (ko'proq shaharliklarning) fikrini, yangi g'oyalar bilan charxlardi, amirning o'rta asrchilik davlat boshqaruv idorasi-yu, mullalarning mutaassibligiga qarshi o'z ta'sirini o'tkazardi. Islohotchilik g'oyalariga albatta, men ham hamroh bo'ldim va bizlar maktab va madrasani isloh qilish yo'lida tashviqot olib borardik[1,29]".

Sadridin Ayniy fikrlariga ko'ra, 1907 yil Buxoroda tatar Nizomiddin Sobitov uyida Mir Badridin qozikalon ruxsati bilan tatar tilida jadid maktabini ochgan[2,34]. Shuni alohida aytish lozimki, 1908-1910 yillargacha, ya'ni Yosh buxoroliklarning "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") tashkiloti tuzilgan kungacha Buxorodagi yangi usul maktablari, asosan tatar maktablari bo'lib, ularda tatar millatiga mansub muallimlar faoliyat yuritgan.

Sadridin Ayniyning fikricha, 1908-yilning yoz faslida Ismoil Gasprinskiy Buxoro hududiga jadid maktablari faoliyati borasidagi tajribalari haqida qarashlarini yoyish maqsadida keldi.

Sadridin Ayniyning ta'kidlashicha, Ismoil Gasprinskiyning tashrifi va tashviqi befoyda ketdi. Faqat tatar tilidagi jadid maktabi maktabi Nizom Sobitovning uyidan, boshqa bir jadid vakili bo'lgan Xolid Burnashevning uyiga ko'chirib o'tkazilgan. Bu jadid maktabi bir yil faoliyat ko'rsatgan, xolos. bir Sadridin Ayniyning "Tarixi amironi mang'it'iyai Buxoro"[3,90] ("Buxoro mang'it amirlari tarixi") asarining "Amir Abdulahad va maktab masalasi" bo'limida ta'kidlanishicha, 1908 yildan amir Abdulahad davrida Buxoro amirligida muhim voqealardan biri sirasiga kiradigan ma'lumotlar yoritilgan. "Amir Abdulahad jadid maktabining tarafdori emas edi, lekin maktab masalasida biron jiddiy g'alayon yoki fitna qo'zg'alishini ham xohlamasdi. Mazkur amirning o'zi mard sohibfikrli va tajribali kishi edi. U maktab tarafdorlarining hammasi qalam ahli (shoir, yozuvchilar) va gazeta o'qiydiganlar ekanligini yaxshi bilardi"[4,91-92].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Sadridin Ayniy o'zining "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" kitobining "Yashirin jamiyatning Istanbuldagi talabalarga munosabati" bobida quyidagi muhim ma'lumotlarni yoritib o'tgan: Bu jamiyat o'z nomida Buxoro va Turkistonning maorifi yo'lida muhim ishlarni amalga oshirdi. Bu jamiyatning muassislari, buxoroliklardan Abdurauf Fitrat, Muqimbek, Sodiqlik Ashurzoda edi, bularga g'uljalik Abdulaziz nomli bir shaxs xayrixoh edi. Istanbulda o'qiydigan barcha buxoriy va turkistoniy yoshlar bu jamiyatga a'zo bo'lib, Buxoroning bir qism maorifparvarlari g'oyibona bu jamiyatning a'zosi edilar. Tatarlardan Olimjon Idrisiy ham, bir muddat Buxoroda bo'lib, buxoroliklar bilan yaqinligi bor edi, bu jamiyat bilan uzviy bog'liqlik Sadridin Ayniy "Qisqacha tarjimai holim" asarida ta'kidlashicha, 1910-1911-yillarda Buxoro amirligida jadid maktablari o'z faoliyatini iloj qadar shakllantirishga kirishgan. Mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, amir hukumatining olib borgan reaksion siyosati, Buxorodagi Rossiya Siyosiy agentligining maorif sohasiga ta'siri, amir Abdulahadxonning vafoti va uning o'rniga o'g'li Sayid Olimxonning taxtga kelishi, 1910-yilning yanvarida bo'lib o'tgan diniy toifa vakillarining nizolarining hammasi o'z kuchini namoyon etdi.

Yosh buxoroliklar Buxoroda zamon talabiga mos tizim o'rnatishga, bilimsizlikdan qutqazishga qaratilgan g'oyalar bilan harakatlangan edi.

Jadidlar xalqni savodli qilishning yo'llari sifatida maorif va matbuot sohalariga asosiy urg'u berishni ta'kidlaganlar.

Sadridin Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarining "Buxoroyi sharif" va "Turon gazetalar", "Gazetalarning to'xtatilishi" va "Gazetalarning ta'siri" kabi bo'limlarida, 1912-1913 yillar davomida Buxoroda Yosh buxoroliklar tomonidan yo'lga qo'yilgan matbuotchilik ishlari, ya'ni "Buxoroyi sharif" va "Turon" nomidagi gazetalarining nashr etilishi to'g'risidagi muhim bo'lgan ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Sadridin Ayniyning ta'kidlashicha, 1912-yilda "Tarbiyai atfol" jamiyati a'zolaridan Muhiddin Mansurov va Mirza Siroj Hakim kabi ma'rifatparvarlarning sa'y-harakatlari sababli Buxoroda tojik tilida "Buxoroyi sharif" gazetasini nashr qilishga ruxsat beriladi. Gazetaning mudirligiga Rossiya siyosiy agentligida tarjimon bo'lib faoliyat yuritayotgan Haydarxo'ja Mirbadalov tayinlangan.

“Elchixonasi syenzorlik haqi o‘z qo‘lida bo‘lmoq sharti bilan Buxoro hukumatidan Liviy va Haydarxo‘ja ismlariga gazeta uchun imtiyoz olib beradi. Bokudan muharrirlik uchun asli buxorolik Mirza Jalol Yusufzoda chaqirildi. Bir qadar harf va bir necha murattib keltirilib forsiy (tojik) tilda “Buxoroyi sharif” ismida kundalik bir gazeta chiqariladi. Gazetaning birinchi soni 4 rabius - soniy 1330 hijriy - 1912 milodiy 11 martda yakshanba kuni nashr bo‘ldi” deya ma’lumotlar berib o‘tadi.

Sadriddin Ayniyni “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida keltirilishicha, “Xulosai kalom, 1913-yil 2-yanvarda rus elchixonasi nomidan Petrov imzosi bilan idoraga ushbu mazmunda bir maktub keldi: “Buxoro amiri janob oliyning xohishlari bilan ushbu kundan e’tiboran “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarini to‘xtatildi. Mana shunday bo‘lib “Buxoroyi sharif” 1912-yildan 2-yanvar 1913-yilga do‘vr 153 - son chiqib va “Turon” 14-iyul 1912-yildan boshlab mazkur tarixgacha 49 - son chiqib to‘xtamoqqa majbur bo‘ldi. Yangi meva keltira boshlagan ushbu ikki nihol, istibdod va zulm boltasi bilan xalq bog‘chasidan chopilib otilidilar[5]”.

Sadriddin Ayniyni “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida ta’riflanishicha, “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarini nashr qilish, uni xalq orasida tarqatish, targ‘ibot va tashviqot qilishda quyidagi yoshlar va yosh fikrlilarning xizmatlari va yordamlari katta bo‘lgan: Mirzo Muhiddin Mansurov va uning o‘g‘illari Mirzo Izom va Mirzo Abdulqodir, Mirzo Siroj Hakim (Mirxon), Mirzo Abdulvohid Munzim, Fazliddin maxdum, Muhiddin maxdum Abdulhakim sudur o‘g‘li va uning birodari Abdunasir maxdum, Aminjon maxdum Ziyo, Abdulhakim maxdum Obidzoda, Mirzo Izatullo, Mirzo Nazrullo G‘afurzoda (1917-yil aprelida shahid bo‘lgan), Hoji Abdusattor Abduqahhor o‘g‘li (1918-yilda shahid bo‘lgan), Mirzo Mustafoqul Bo‘riboy o‘g‘li (1918-yilda shahid bo‘lgan), Hoji Hamroh Yo‘ldosh o‘g‘li, Hoji Hamroh, Mirxon Porso, Porsoxoja Hasanxoja o‘g‘li va boshqalar[6].

Hamidxo‘ja Mehri ham Hovuzi Arbob guzaridagi uyini qayta ta’mirlab, jadid maktabini ochgan. Poyi ostona guzarida Mullo Vafo nomli mudarris yangi usul maktabi tashkil qilib, rus va fors tilidan ta’lim beradi. Sadriddin Ayniyni ta’kidlashicha, 1913-yil yoz faslida Usmon Xo‘ja Gavkushon guzaridan bir hovlida jadid maktabini tashkil qilgan.

Buxoro shahrining Morkush va Xiyobon guzarlarida ochilgan yangi usul maktablarni shaharning boy savdogarlari moddiy jihatdan ta’minlab holda qullab-quvvatlagan. Maktablarda o‘rtahol va kambag‘al kishilarning farzandlari bilim olgan. Shayx Abulqosim va Shayx Mirzo Habib kabi malakali o‘qituvchilar jadid maktablarda bilim bergan.

NATIJA

Jadid maktablari nafaqat Buxoroda, balki amirlikning ko‘pgina hududlarida ham faoliyat ko‘rsatgan. Sadriddin Ayniyni ta’kidlashicha, 1908-1912 yillarda Karkida tatar bolalari uchun maktab, rus tilini o‘rganuvchilar uchun to‘garaklar tashkil qilinib, kutubxonalar ochilib ilm ahli uchun xizmat qila boshladi. Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Fazliddin Maxzum, Hoji Jo‘raqul, Abdufattohjonlar bu jarayonda faol qatnashdilar. “1913-yilning oxirlarida Karki shahrida yoshlardan Kiyikchi degan kishi va bu yerda muqim turuvchi ayrim buxoroliklar maktab masalasida ko‘pgina xayrli ishlarni amalga oshirdilar. Karkilik yoshlar Qori Yo‘ldosh Po‘lotov rahbarligida samarali ishlarni olib bordi. Ular buxorolik Mirxon Abunasrzodaning uyida yangi usul maktabini ochib, ta’lim ishlariga rivoj berdilar. Qiroatxona va kitob magazini tashkil etdilar. Xulosa, ularning faoliyatlari xuddi tashkilot shakliga kirgan edi”.

Buxoro amirlikning Shahrisabz bekligida Islomqul to‘qsoba o‘z uyida jadid maktab ochib, unda ishlash uchun Toshkent va Samarqanddan bir necha muallimlarni taklif etgan[1]. Amirlikning G‘ijduvon tumanida Abdulhakimxo‘ja ham yangi usul maktabini ochishga muvaffaq bo‘ladi[1]. Qorakul tumanida amlodkor G‘ulom Qodir bilan Qozi Ikrom jadid maktab tashkil qilib xalq farzandlarini o‘qitgan. Amirlikda Sulaymonxo‘ja tomonidan gazeta va kitoblar keltirilib, kutubxona ishlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Amirlikning Shofirkon, Vobkent va Vang‘oze tumanlarida yangi usul maktablar tashkil etilib, tatar muallimlari dars bergan. Sadriddin Ayniyni “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarining “1914-yillardagi hollar va maktablar” bo‘limida yozishicha, 1914-yilga kelib Buxoroda nom chiqargan, Usmonxo‘janing maktabida taxminan 200 nafar[1], Hamidxo‘ja Mehrining maktabida esa 100 nafar, Mukammaliddin maxdumning maktabida 50 nafar, Xiyobon guzarida joylashgan maktabda 40 nafar, Morkush guzaridagi maktabda 150 nafar, Mulla Vafoning maktabida 80 nafar o‘quvchi ta’lim olgan[2].

1914-yilga kelib Yosh buxoroliklarning maxfiy jamiyatlari bo‘lgan “Tarbiyai atfol”ning ishlari kengayib, xalq doirasidagi ta’sir hududi ortdi. Ularning qatoriga bilimli yoshlar kelib qo‘shilgan. “Ushbu yil (1914-y) - deb yozadi Sadriddin Ayniy ta’kidlanishicha, - Muhammad Musa, Ismoil Sadriy, Qori Hoshim kabi faol yoshlar jamiyatga kirgan edilar. Jamiyatning asrori (siri)ni ochmasdan,

FALSAFA

ko'ngillari to'laturg'on odamlar bilan yashirin jamiyatchalar yasagan edilar. Bu jumladan, Yusuf (shahid) va Nizom maxzum (shahid)larga fikr berib, ularning vositalari bilan Kenagas eli orasida Shahrisabzda bir yashirin jamiyat yasadi"[1]. Bundan tashqari, 1914-yil "Tarbiyai atfol" jamiyatining Karkidagi a'zolaridan bo'lgan Fazliddin maxzum, Abdufattohjon va Hoji Jo'raqul ma'rifatparvarlar ko'zga kurinarli ishlarni bajardi.

Sadriddin Ayniy ta'kidlashicha, ayni paytda 1914-yilning mayida Buxoroda yuz bergan voqealar natijada "bu orada Fitrat bilan Atoxo'ja Buxoroga qaytib keldilar. Ular yangi usul maktablari islohida yo'l boshchi bo'lib, maktablar ochish yo'lida sa'y-harakatlarini ayamadi, yoshlar va muallimlar bilan maslahatlashgan holda maktablar atrofida birlashdilar"[1] - deb yozgan. 1914-yilda Fitrat Buxoroga yangi tipdagi tajribalarni o'rtirib qaytdi. Afsuski bu tajribalarni amalga oshirish uchun sharoit yo'q edi.

Shundan so'ng Fitrat Buxoro jadidchilik harakatining yo'l boshchilaridan birishga aylandi. Sadriddin Ayniyning "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asaridagi "1914-yildagi hollar va maktablar" bo'limida ta'kidlanishicha, ushbu yilda Yosh buxoroliklar tomonidan ikki muhim ish amalga oshirilgan. Bulardan dastlab, "Ma'rifat kutubxonasi" va "Barakat shirkati" ochildi. Sadriddin Ayniyning fikricha, "Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetalarining nashr etilishi to'xtatilgach, yangi adabiyotga, gazetalarni o'qishga qiziqqan mahalliy aholini zamonaviy o'quv adabiyotlar, jurnallar va gazetalar bilan ta'minlash, ularni rag'batlantirib borish natijasida "Ma'rifat kutubxonasi" tashkil etilgan. Mazkur faoliyatni qullab-quvvatlash natijasida yangi o'zgarishlarga qiziqayotgan yoshlarning ma'naviy saviyasi yanada oshdi.

"Ma'rifat" shirkati tomonidan 1912-1917 yillar mobaynida ma'rifat va axborot berish sohasida anchagina ishlarni amalga oshirdi.

Sadriddin Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarining "Maktablarning ikkinchi marta yopilishi" bo'limida ta'kidlanishicha, Buxoroning diniy mutassiblari Amir Olimxonga maktub junatib, yangi usul maktablari faoliyatini tuxtatish kerakligini aytib xat yullagan.

Qarshiliklar tufayli 1914 yilga kelib Buxorodagi barcha jadid usul maktablari ikkinchi marotaba kattiq qarshilikka kursatiladi.

Bu voqealardan so'ng Sadriddin Ayniy Buxorodan Qiziltepaga o'tib, usha yerdagi Paxta tozalash zavodida ishchi bo'lib ishlaydi[1]. Buxoro amiri Sadriddin Ayniy jadidlar muhitidan ajratib, o'z tomoniga og'dirish va o'z xizmatiga o'tkazish maqsadida Xiyobon guzarida joylashgan madrasada mudarrislik vazifasiga tayinlanadi. Amirga xizmat qilishni xohlamagan adib ko'p o'tmasdan, bu ishini tark etgan.

1914-yil amirlikda faoliyat ko'rsatayotgan yangi usul - jadid maktablarining tugatilishi Turkistonga tarqaldi. Usha davr gazatalarda Buxorodagi jadid maktablarining tugatilishi to'g'risidagi xabarlar tarqala boshlaydi. Unda Buxorodagi muttassib ruhoniylar va ayrim davlat arboblari qattiq tanqid ostiga olinadi[1].

1914-yilning 5-iyulida Buxoro amirining maxsus farmoni bilan barcha jadid maktablari faoliyati yopildi, ularning ko'zga ko'ringan yo'l boshchilaridan ayrimlari shahardan chiqarib yuborildi, yana bir qismiga qattiq ogohlantirish beriladi. Bundan tashqari yangiliklar bilan tanishish, gazeta mutolaa qilish taqiqlanadi[2].

XULOSA

Shuni alohida qayt qilib aytganda, Sadriddin Ayniy asarlarida keltirilgan ma'lumotlardan qo'yidagilarni ma'lumot qilish mumkin, Buxoro amirligida jadidchilik nomi ostidagi g'oyalar XIX asrning ikkinchi yarmidan kurtak yoyib, XX asr boshlariga qadar faoliyat kursatgan.

Buxoro amirligida tashkil etilgan jadidchilik harakati dastlab tatar tilida tashkil etilganligi sabab unda tatar yoshlari tahsil oldi. Bu maktablarda darslar ovozlarni o'rganish orqali ta'lim olayotganligi sababli bilim kunikmalari oson egallagan.

Afsuski, 1914-1915-yillar mobaynida jadid maktablari diniy rahnamolarning ba'zilar tomonidan qattiq qarshilikka uchraganligi sababli amirlik hukumati tomonidan yangi usul maktablarini tugatish haqida farmon beriladi. Jadid namoyondalarining ba'zilar quvg'in qilindi, ba'zilar qamoqqa olindi. Mamlakatimiz tarixiga xalq ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan ma'rifatparvarlik harakati faoliyati to'xtatildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. - Москва: СССР халқлари Марказий нашриёти, 1926.
2. Айний С. Таърихи инқилоби фикрӣ дар Бухоро. - Саҳ. 34.

3. Айний С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. - Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923. - Саҳ. 90.
4. Айний С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. - Саҳ. 91- 92.
5. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган 6-нашри. -Тошкент: O'zbekiston, 2015. - Б. 144 - 145.
6. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. - Б. 105; ЎзР. МДА. 3-фонд, 1-рўйхат, 268 иш, 3-варақ.
7. Айний С. Таърихи инқилоби Бухоро. - Душанбе, 1987. - Саҳ. 118.
8. Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим / Асарлар. 8 жилдлик. 1 - ж. - Тошкент: Ўздавадабийнашр, 1963. - Б.72
9. Бухорода мактаблар ёпулмоқ // Садои Фарғона. 1914 йил, № 44, 21 июль: Бухоронинг аҳволи ҳозираси // Садои Фарғона. 1914 йил, № 26, 11 июль. - Б. 38.
10. Бюллетень САГУ, вып. 16, Т. 1927. С. 93.